



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




ANDIJON VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI



2023- YIL
YANVAR-AVGUST

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, **2023-yilning yanvar-avgust** oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 13 354,0 mlrd so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan (**111,5 %**) o'sish sur'ati **108,2 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi – bu, korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2022- yil ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan

Xizmatlar sektori murakkab tuzilmaga ega bo'lib, iste'molchilarga har xil turdagi xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlardan iborat.

Ushbu korxonalar va tashkilotlarning faoliyat doirasi ancha keng bo'lib, ular mijozlarga turli xil tovarlar yetkazib beradi (savdo xizmatlari), ularning ishlashini ta'minlaydi (texnik xizmat ko'rsatish) yoki o'zlari xizmatlar ko'rsatadilar (sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va boshqalar).



2023-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni **29 439** birlikka yetdi. Xizmatlar sohasida **20 110** birligi jalb etilgan bo'lib, bu ularning umumiy sonining **68,3** foizini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: **2022-yil 1-sentabr holatiga ko'ra** xizmatlar sohasidagi mavjud korxonalar va tashkilotlarning ulushi **61,9** foizni yoki **27 104** birlikni tashkil etgan.

2023-yil yanvar-avgust oylarida xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni **2 062** birlikni tashkil etib, jami yangi tashkil etilganlar umumiy sonining **66,6** foizi (**3 094** birlik) darajasida qayd etildi.

Taqqoslash uchun: **2022-yil yanvar-avgust oylarida** ularning soni **2 182** birlikni tashkil etgan.



Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-avgust)


Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati 1)	13 354,0	100,0	108,2
Andijon shahri	4 705,0	35,2	109,5
Xonobod shahri	340,1	2,5	110,3
Tumanlar:			
Oltinko'l	572,7	4,3	108,2
Andijon	819,3	6,1	107,8
Baliqchi	719,9	5,4	107,1
Bo'ston	227,3	1,7	105,6
Buloqboshi	434,9	3,3	107,6
Jalaquduq	590,7	4,4	108,4
Izboskan	637,0	4,8	106,4
Ulug'nor	193,4	1,4	108,6
Qo'rg'ontepa	667,1	5,0	108,0
Asaka	957,8	7,2	105,7
Marhamat	555,0	4,2	107,4
Shahrixon	723,5	5,4	107,7
Paxtaobod	535,3	4,0	107,9
Xo'jaobod	675,0	5,1	107,3

1) Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-avgust)



2023- yil yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 000,1 ming so'mga yetdi. 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati 105,9 % ni tashkil etdi



Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati 1)	4 000,1	105,9
Andijon shahri	9 991,6	107,2
Xonobod shahri	7 525,0	107,9
Tumanlar:		
Oltinko'l	3 016,0	105,8
Andijon	2 912,4	105,5
Baliqchi	3 392,5	104,9
Bo'ston	2 971,1	103,7
Buloqboshi	2 889,4	105,6
Jalaquduq	3 013,8	106,4
Izboskan	2 533,9	104,3
Ulug'nor	3 060,3	106,7
Qo'rg'ontepa	2 938,6	106,1
Asaka	2 743,5	103,4
Marhamat	3 027,9	105,2
Shahrixon	2 269,5	105,3
Paxtaobod	2 608,6	105,5
Xo'jaobod	5 725,6	104,4





Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (yanvar-avgust)

Xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(fermer va dehqon xo'jaliklari bundan mustasno)

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlari umumiy sonining (24 149 birlik) **61,9** foizi yoki **14 959** birligi xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatadi.

2023- yil yanvar-avgust oylarida xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 924** birlikni yoki ularning umumiy sonining (**2 256** birlik) **65,1** foizini tashkil etdi.



Hajmi, mlrd so'mda O'sish sur'ati

2023-yilning yanvar-avgust oylarida kichik tadbirkorlik hajmi 8 738,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 65,4 foizni, shu jumladan, 14,5 foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-avgust oylarida bu ko'rsatkich **7 452,5** mlrd so'mni tashkil qilgan. **2021- yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **111,8** foizni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-avgust)

	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	13 354,0	100,0	108,2
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	677,9	5,1	123,8
Moliyaviy xizmatlar	2 821,6	21,1	112,2
Transport xizmatlari	2 657,2	19,9	102,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	2 584,1	19,4	103,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	252,9	1,9	105,5
Savdo xizmatlari	4 059,7	30,4	106,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	324,9	2,4	103,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	619,6	4,6	123,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	239,9	1,8	107,4
Ijara xizmatlari	252,5	1,9	100,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	296,7	2,2	104,0
Shaxsiy xizmatlar	658,7	4,9	100,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	123,4	0,9	102,5
Boshqa xizmatlar	369,0	2,8	119,5

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.




2022- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **2023-** yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi **537,0** mlrd soʻmga oshib, **2 821,6** mlrd soʻmga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **21,1** foizni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning oʻsish surʼati **112,2** % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan toʻlovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash boʻyicha xizmatlari uchun toʻlanadigan haq hisobiga koʻra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-avgust)

2023- yilning yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sugʻurta va nafaqa taʼminoti boʻyicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **84,4** % ni tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-avgust oylarida transport xizmatlari hajmi **2 657,2** mlrd so'mni tashkil etib, **2022-** yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **102,6** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **19,9** % ni tashkil etdi.



Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog'liq bo'lib, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **940** birlikni, yoki ular umumiy sonining **3,2** % ini tashkil etdi. Ulardan **929** birlik (**98,8** %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Transport xizmatlarining turlari bo'yicha tarkibi

(2023- yil yanvar-avgust)



Avtomobil


Yordamchi transport faoliyati

Pochta va kuryerlik faoliyati

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **97,2** %.

2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **2023- yilning yanvar-avgust** oylarida savdo xizmatlari hajmi **610,8** mlrd soʻmga oshib, **4 059,7** mlrd soʻmni tashkil etdi.

2022- yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turi boʻyicha oʻsish surʼati **106,3 %** ga yetdi.



Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, yaʼni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlarini orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlarini uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

9 026 birlik

1- sentabr holatiga koʻra faoliyat koʻrsatayotgan

9 008 birlik

1- sentabr holatiga koʻra kichik tadbirkorlik subyektlari

2023- yilning 1- sentabr holatiga koʻra xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band boʻlganlarning ulushi **44,9 %** yoki **9 026** birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **99,8 foizi** (9 008 birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.



Savdo xizmatlarining tarkibi



82,0 % Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Ulgurji savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari xizmatlar

9,9 %



8,1 %

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar



2023- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rtidan uch qismini, ya'ni **82,0 %** ni tashkil etdi.





2023- yilning yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **677,9** mlrd soʻmdan iborat boʻlib, **oʻtgan yilning mos davriga** nisbatan oʻsish surʼati **123,8 %** ni tashkil etdi.

Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **5,1** foizni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat koʻrsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yigʻindisi sifatida aniqlanadi.


2023- yilning 1- sentabr holatiga koʻra “Axborot va aloqa” faoliyati bilan shugʻullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **422** birlikka yetdi, shundan **414** birligi (umumiy sonining **98,1 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi


(yanvar-avgust)

2022- y.

2023- y.



2023- yil yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **619,6** mlrd so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **123,1 %** ni tashkil etdi.



“**Ta'lim**” **seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.



Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.




2023- yil yanvar-avgust oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **239,9** mlrd so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,8 %** ini tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi – bu, sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **967** birlikni tashkil etdi, shundan **880** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.



2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **60,1 mlrd so'mga** oshib, **252,9 mlrd so'mni** tashkil etdi.




Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2023- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1 218** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1 213** birligi (umumiy sonining **99,6 %**) kichik tadbirkorlik subyektlaridir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2023- yil yanvar-avgust)






2023- yil yanvar-avgust oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **324,9** mlrd so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,4 %** ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-avgust** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **103,9 %** ni tashkil etgan.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-avgust, mlrd so'mda)

Andijon viloyati ¹⁾	324,9	Jalaquduq	15,5
Andijon sh.	89,8	Izboskan	19,9
Xonobod sh.	15,9	Ulug'nor	4,1
Oltinko'l	12,3	Qo'rg'ontepa	16,0
Andijon	16,8	Asaka	32,4
Baliqchi	13,8	Marhamat	16,3
Bo'ston	7,8	Shahrixon	20,1
Buloqboshi	11,8	Paxtaobod	14,7
		Xo'jaobod	17,7

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2023- yilning yanvar-avgust oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **123,4** mlrd so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **0,9** % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi (2023- yil yanvar-avgust, mlrd)

Andijon viloyati	123,4	Izboskan	4,4
Andijon sh.	45,1	Ulug'nor	2,8
Xonobod sh	2,3	Qo'rg'ontepa	6,9
Oltinko'l	3,1	Asaka	9,5
Andijon	5,4	Marhamat	7,1
Baliqchi	4,0	Shahrixon	6,4
Bo'ston	1,8	Paxtaobod	8,9
Buloqboshi	3,7	Xo'jaobod	8,2
Jalaquduq	3,8		

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

2022- yilning yanvar-avgustiga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **20,8** mlrd so'mga oshib, **252,5** mlrd so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **1,9** % ni tashkil etdi.



Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadning o'sishiga yordam beradi, aholining munosib hayot sifatini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi ishchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejashga yordam beradi va bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

